

YOSHLARDA TADBIRKORLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA IQTISODIY XULQ-ATVORNING ROLI

Dutov Baxodir Toshpulatovich

**Kattaqo'rg'on Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi
texnikumi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10572317>

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizdagi olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishirilayotgan hozirgi davrda yoshlarimizning iqtisodiy dunyoqarashni axloqiy jihatlarini rivojlanish jarayonida ularning yuksak iqtisodiy siyosiy va ma'naviy faollik yuksaltirish masalalari qamrab olingan.

Kalit soz'lar: ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, axloq, ma'naviyat, yoshlar, iqtisodiy bilim, iqtisodiy xulq-atvor, tadbirkorlik madaniyati.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning har taraflama iqtisodiy tafakkurini oshirish va sifat jihatdan yangi bilimlar bilan tarbiyalash dolzarb masaladir. Mavjud imkoniyatlar hozirgi yoshlarimizdan yangicha bilim, ishtiyoq, yuqori iqtisodiy tafakkurni va faollikni talab qiladi. Mamlakatimiz yoshlar manfaatlarini har tomonlama siyosiy, huquqiy va iqtisodiy madaniyatini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirishga bugun katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Biz yoshlarimizda tadbirkorlik tashabbusini rivojlantira olsak, ularga mablag'lardan to'g'ri foydalanishni o'rgatsak, nafaqat iqtisodiy, balki ko'plab ijtimoiy muammolarni ham hal etgan bo'lamiz"[1;23] – degan fikrni ilgari suradi. Eng birinchi navbatda jamiyatni moddiy texnik jihatdan boyitish masalasi juda dolzarb vazifadir.

Buning uchun aholini yashash turmush darajasini oshirish va mavjud iqtisodiy resurislardan oqilona foydalanish talab etadi. Albatta bunday vaziyatda odamlarni to'g'ri va oqilona yashashlari uchun iqtisodiy madaniyatni ko'tarishda iqtisodiy xulq-atvorning o'rni sezilarli. Xo'sh iqtisodiy tarbiyani o'zi qanday jarayon. Iqtisodiy madaniyat insonning tadbirkor va uy-xo'jalik yuritish qadriyatlarini va orzu-umidlarining ajralmas qismidir. Ushbu mezoniy tushunchani ildizi kishilik jamiyatida doimo iqtisodiy munosabatlar mahsuli sifatida ya'ni bir yoqlama yondashuv asosida vujudga kelgan hodisa sifatida qoraladi. Jamiyatda kishilar hayotiy manfaat va ehtiyojlarini qondirish uchun iqtisodiy munosabatlarga qanday kirishishida iqtisodiy xulq-atvor yaqqol ko'zga tashlanadi.

Umuman olganda iqtisodiy madaniyat iqtisodiyot subyektlari ya'ni insonlarning bir-biriga bo'ladigan munosabatida o'zini tutishining milliy, umuminsoniy, ahloqiy, huquqiy, iqtisodiy qoidalariga amal qilishning meyor darajasini belgilaydi. Bu hatti-harakatlar albatta mazkur iqtisodiy hayotning tabiati, xarakteri va qarama-qarshiliklari qonuniyatlariga ko'ra aniqlanadi. Iqtisodiy madaniyat aslida bozor tamoyillari qonunlariga amal qilishdir. Demak, har bir insonni o'z kasbiga nisbatan layoqat, bilimdonlik, omilkorlik, mas'uliyat va halollik yotadi. Buning uchun iqtisodiy dunyoqarashni axloqiy jihatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini qarab chiqishimiz lozim. Eng birinchi navbatda iqtisodiy dunyoqarash bilish, fikrlash, insoniyatni qurshab turgan dunyoni anglashi, o'zgarishlarni oldindan his eta olishi, ijodiy fikrlar yaratish va ularni amalga oshirish yo'llarini topish kabi ma'naviy rivojlanish shakllaridan biridir. Axloqiy tafakkur milliy urf-odat va an'analar asosida, iqtisodiy tafakkur esa insonlarni yashash tarzida uy-xo'jalik yuritish, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish bilan birga, tadbirkorlik madaniyatining vujudga kelishining asosi hisoblanadi. Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev

“Oldimizda turgan eng muhim masalalar shuki – ma’naviyatli, bilimli va kasb-hunarlarli, o’z fikriga ega bo’lgan yoshlarimizni zamonaviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni yaxshi tushunamiz” [2;]. O’zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, tadbirkorlarni ko’paytirish, ayniqsa, yosh avlodni bu sohaga keng miqiyosda jalb qilish davri kelgani bu ayni haqiqat.

Iqtisodiy tafakkurning o’ziga xos axloqiy mezonlaridan biri yangi shakldagi yondashuvlarni belgilashni nazarda tutadi. Birinchisi, ijtimoiy xarakterdagi yangi, o’zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning ilmiy-nazariy xususiyati va uning aks etishini bildiradi. Bundan kelib chiqadiki, yig’ilgan bilimlardan boshqa, ishbilarmon iqtisodiy tafakkuri va obyektiv qonunlarni bilishi hamda iqtisodiy tizimga tegishli bo’lgan qarorlarni axloqiy jixatdan mazmun-mohiyatini anglab yetishi kerak. Ikkinchi yondashuvga ko’ra iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishning sifat jihatdan yangi yutuqlarga erishish, uning obe’ktiv shart-sharoitlari, ishlab chiqarishni intensivlashtirish jarayoning mohiyatini belgilaydi. Bu jarayonni idrok etish, miqdoriy jihatdan emas, balki sifat va samaradorlikning yakuniy natijasiga erishishidir.

Hozirgi kunda kishilarning iqtisodiy dunyoqarashi, tafakkuri dunyo tajribasi yutuqlarini, ilmiy jihatdan o’rganish va bu orqali ko’p muvaffaqiyatlar hamda natijalarga erishish demakdir. O’zbekistonning iqtisodiyoti jahon global iqtisodiyotning bir qismi bo’lib hisoblanadi. Xalqaro integratsiyaning asosiy maqsadi dunyo bozorini rivojlantirish va chuqurlashtirish orqali hamda hamkorlikda ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishdan iborat.

Hozirgi davr yoshlarining iqtisodiy tafakkurida iqtisodiy xulq-atvorni shakllantirish orqali tadbirkorlik madaniyati quyidagi substansional asosga ega bo’ladi;

1) akkumulyativ - iqtisodiy madaniyat tarkibidagi qismlarning o’zgaruvchanligiga moyilligi, obyektlarni tezroq idrok va tasavvur etish uchun tadbirkorlik jamiyatida madaniylashgan jamiyat sifatida vujudga keladi;

2) inson ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish orqali ishbilarmonlik faoliyatini boyitadi va yangilanish imkoniyatlarini o’stirish bilan birga, tashqi va ichki imkoniyatlarini tarmoqlashtirish orqali madaniy an’analarni rivojlantirish;

3) mehnatdagi sifat va samaradorlik – ya’ni madaniy aloqalarning ko’pligi va ularning quvvati tufayli samarali ishlash qobiliyatining o’sishi;

4) invariantlilik - tadbirkorlar madaniyatini harakatga keltiruvchi va tajribalarining ikki xilligini keltirib chiqaruvchi qobiliyatdir. Kishilarning erkin tanlash tamoyillari asosida iqtisodiy madaniyat meyorlari va qadriyatlaridan foydalanishga imkon beradi.

Tadbirkorlik - bu kishilarning yuksak axloqiy madaniyatidir. Bizning fikrimizcha, yoshlarning tadbirkorlik madaniyati – an’anaviy va hozirgi zamonaviy ishlab chiqarish imkoniyatlardan unumli foydalanishda eng birinchi navbatda tabiat va jamiyat boyligiga tejamkorlik va oqilana foydalanish madaniyatini o’rgatish o’ta dolzarbdir. Chunki moddiy va ma’naviy ehtiyojlarning o’zaro hamohangligini o’zida jamlagan inson yaratuvchanlik faoliyatining mohiyati bajargan aqliy mehnat yig’indisidir.

Xulosa qilib aytganda hozirgi paytda O’zbekistonda yoshlar iqtisodiy tafakkuridagi mavjud tadbirkorlik va mulkdorlikning huquqiy asoslari yanada mustahkamlanmoqda. Asosiy qonunimiz bo’lgan Konstitusiyada keltirilganidek, “Har bir shaxs mulkdor bo’lishga haqli” [3;27]. Chunki, jamiyatda tadbirkor, ishbilarmon va mulkdor yoshlarni tarbiyalash davlatning yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yoshlarda iqtisodiy tafakkur va tadbirkorlik madaniyatini yuksaltirishda milliy turmush tarzimizdagi qadriyatlar bilan tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, dinimizda

ham tadbirkorlik olqishlangan. Bundan shu narsa kelib chiqadikiy yoshlarni ham jahon tadbirkorlik bilimi hamda milliy tarbiya ruhida tarbiyalash masalasi bugungi kun uchun ahamiyati juda katta.

References:

1. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакни, тadbirkor халқ – фаравон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. - Б.23.
2. Мирзиёев Ш.М. Демократик ислохотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир // «XXI ASR», 2016 йил 21 октябрь, 44-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: “Ўзбекистон”, 2023. -Б.27.
4. Жўраев Л. ЁШЛАР ИҚТИСОДИЙ ХУЛҚ-АТВОРИДА ТРАНСФОРМАЦИЯ //Journal of Social Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 02. – С. 51-55.
5. Jamalova N. U. POSSIBILITIES OF USE OF FOLK PEDAGOGY IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL AND PERSONAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 191-193.
6. JAMALOVA N. Pedagogical Conditions for the Development of Individual-Personal Characteristics of Students of a Higher Educational Institution //PINDUS Journal of Culture, Literature, and ELT (PJCLE). – 2022.
7. ХАККУЛОВ Н. К., РИЗАЕВ И. И. Цифровая культура и неприкосновенность личности //Новые технологии в учебном процессе и производстве. – 2023. – С. 605-606.
8. Qahramonovich H. N. Zamonaviy Markaziy Osiyo Falsafasinini Ikki Dahosi //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 43. – С. 6-9.
9. Ruzimurodov S. M. Ethnomadonian, Ethnoesthetic Aspects Of The Formation Of A Healthy Lifestyle In Society //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 188-194.
10. MADATOVICH R. S. Aesthetic Features of the Formation of a Healthy Environment in the Upbringing of Children in the Family //JournalNX. – 2020. – Т. 6. – №. 04. – С. 88-90.
11. Джураев Л. Н. ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ //НАУКА И СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2020. – С. 114-116.
12. Yuldasheva S. Interactive Methods of Teaching Children and Its Theoretical Basis and Personal and Professional Development of a Teacher //International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology (IJRASET). – 2021.
13. Maxmudova M. ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Международный научный журнал. – 2017.